

O'SMIRLARNING HISSIY SHAKLLANISHIDA MULOQOTNING O'RNI

Choriyeva Sarvinoz Abdirashidovna

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11181652>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda o'smir o'quvchilarida samarali muloqotni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi, o'smir o'quvchilarda muloqotni rivojlantirish yo'llarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganilishi o'smirlik yoshidagi o'quvchilarda tengdoshlari bilan muloqot xususiyatlarini hissiy shakllanishiga ta'sirini o'rganish o'smir yoshidagi o'quvchilarning muloqot jarayonining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlanilishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, o'quvchi, hissiyot, verbal, noverbal, nutq, o'z-o'zini baholash, otana, o'qituvchi, refleksiya, impatiya, affekt.

THE ROLE OF COMMUNICATION IN THE EMOTIONAL FORMATION OF ADOLESCENTS

Abstract. In this article, scientific-methodical recommendations for the development of effective communication among adolescent students are developed today, theoretical and practical ways of developing communication among adolescent students are studied with their peers. the study of the impact of communication features on the emotional formation, the identification of psychological factors affecting the formation of the communication process of adolescent students is described.

Key words: Communication, student, emotion, verbal, non-verbal, speech, self-evaluation, parent, teacher, reflection, empathy, affect.

РОЛЬ ОБЩЕНИЯ В ЭМОЦИОНАЛЬНОМ ФОРМИРОВАНИИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В данной статье разработаны научно-методические рекомендации по развитию эффективного общения школьников-подростков, изучены теоретические и практические пути развития общения школьников-подростков, изучение влияния особенностей общения на эмоциональное формирование сверстников. констатируется выявление психологических факторов, влияющих на формирование коммуникативного процесса школьников в подростковом возрасте.

Ключевые слова: Общение, ученик, эмоция, вербальная, невербальная речь, самооценка, родитель, учитель, рефлексия, сопереживание, аффект.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar doirasida ta'lim sifatini oshirish, ilg'or xorijiy tajribalarni e'tiborga olgan holda ta'lim tizimini takomillashtirish, ayniqsa, o'quvchilarni erta, boshlang'ich sinfdan boshlab, muloqotga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot madaniyatini shakllantirish mazmuni, pedagogik-psixologik xususiyatlari, hamkorlikka asoslangan o'qitishning texnologik yondashuvlariga oid metodik ta'minotni takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizda umumta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni umumta'lim muassasalari faoliyatiga integratsiya qilish, kichik maktab yoshidagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillari va informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish" maqsad qilib olingan.

Muloqot bilan bog'liq muammolar psixologiya fanida chuqur o'rganilgan. Unga tayanib insonning ruhiy taraqqiyotini, uning atrofdagilar bilan bo'ladigan aloqasini, individning shaxs bo'lib shakllanishini muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki muloqot ham insonning o'ziga xos ehtiyojlaridan biri. Insonning go'daklik va o'smirlilik davrlarida muloqot yetakchi, ya'ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi. "Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir.

Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi.

Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi.

Bizga ma'lumki, maktabga o'qish jarayoni 7 yoshdan etib belgilangan. Chunki, bu paytda bola miyasi yaxshigina rivojlangan, u atrofdagi signallarni, yangiliklarni, o'zgarishlarni yaxshi qabul qiladigan yoshda bo'ladi. Shu o'rinda bolani maktabga qabul qilish jarayoni haqida qisqa fikr bildiradigan bo'lsak, bu paytda bolaning aqliy, jismoniy va psixik jarayonlari tekshiriladi.

Ulardan ijobiy natija olingandagina, bola maktabga qabul qilinadi. Lekin, ko'pchilik ota-onalarning xohish-istaklari tufayli bola maktabga muddatidan oldin boradi. Buning ham o'ziga yarasha yaxshi va yomon tomonlari mavjud. To'g'ri, ilmga intilishni qanchalik oldin boshlasa, shunchalik yaxshi, albatta. Ammo, ba'zida bu yoshdagi bolalarning psixikasida ruhiy zo'riqish ham kuzatiladi. Buning natijasida bolada horg'inlikni, darslarga yaxshi qatnasha olmasligini va uyga vazifalariga ulgura olmasligini ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, har bir bolaning o'sib-ulg'ayish davri turlicha kechadi. Shuning uchun, bolani maktabga psixologik tomonlama ham tayyorlash zarur. Chunki, bog'chada do'stlari, o'yinchoqlar orasida erkin o'sgan bolani turli qonun- qoidalarga majburiyatlarga o'rganishi oson kechmaydi, albatta. Bolaning maktabga borish vaqti yaqinlashgani sari, uni jismonan, aqlan va mativatsion tomonlama yetilganligiga ishonch hosil qilish zarur. 6-7 yoshli bolaning og'irligi oyiga 150-200 grammgacha bo'yi esa 0.5 santimetr gacha o'sa boshlaydi Bu davrda bolaning ko'rish, eshitish va umurtqa pag'onasini to'g'ri tuta olishiga e'tibor berish lozim.

O'smirlilik davrida kechadigan psixik qonuniyatlarni hamda fiziologik rivojlanishlarni bilsak, o'smir bilan to'g'ri munosabatda bo'la olamiz. Bu davrda o'smirlarda fiziologik hamda psixologik rivojlanish va o'smirlilik krizislari haqida hozirda ota-onalar hamda o'qituvchilar yetarlicha bilimga ega bo'lishsa, hamda o'smir bilan ta'lim tarbiya jarayonida o'zaro hamkorlikda harakat qilishsa, o'smirdagi har qanday xatti-harakatni to'g'ri qabul qilib yo'naltirish usullarini

aniqlay oladi. Negaki bola doimiy psixologik rivojlanishni yetakchi faoliyat, tashqi ta'sir hamda yoshga xos rivojlanish hamda inqirozni boshdan kechiradi.

O'smir o'quvchilar hissiy sohasi va muloqotchanligining shakllanish jarayonida biologik omillarni balki, ijtimoiy psixologik jihatlarini ham o'rganmasdan va ma'lum tadqiqot bosqichini o'tkazmasdan o'rganish va ma'lum xulosa va tavsiyalarni berish o'rinsiz hisoblanadi. Negaki O'smir doimiy tashqi stimullar ta'sirida rivojlanib boradi. Hatto ushbu stimullar yoshga xos rivojlanish jarayonini ortda qolishiga ham sababchi bo'ladi. Rivojlangan chet el davlatlarida deyarli o'z hududiy demografik o'sish hamda jamiyati mentaliteti va madaniyatidan kelib chiqib, bolani erta yoshdan muloqot jarayonini to'g'ri shakllantirish kognitiv rivojlanish bilan birga o'rganilmoqda. Oilada ota-ona va farzand munosabatlari bilan shug'illanuvchi psixologik markazlar, hamda maktab musassalari bilan ma'lum bir dastur asosida hamkorlikda pedagogic hamda psixologik faoliyat olib borilmoqda. Ushbu faoliyat natijasida ko'zlangan maqsadlarga erishilayotganligini bir necha ilmiy manbaalarda ko'rishimiz mumkin. Asosiy ijtimoiy muhit bo'lgan oila hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari tarbiyaviy, psixologik hamda pedagogik faoliyatiga ahamiyat berishimiz lozim. Demakki oila hamda maktab ta'limi bilan birga bola muloqotining shakllanishiga qaratilgan psixologik ishlarining olib borilishi ushbu davrda bolalar egallashi kerak bo'lgan muhim ijtimoiy –emotsional ko'nikmalar keyinchalik akademik rivojlanishiga, muloqot ko'nikmasining to'g'ri shakllanishiga erishishimiz mumkin bo'ladi.

O'quvchilarning hissiy shakllanishida samarali muloqot qilish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz.

O'quvchilarni muloqotchanlikka o'rgatish bo'yicha rivojlantiruvchi korreksion dasturlar ishlab chiqish va unda pedagoglar hamda ota onalarning keng foydalanishlarini joriy etish.

Oilada bolalarni muloqot madaniyatiga o'rgatish bo'yicha kattalar va ota-onalar uchun psixologik trening-mashqlar kursini tashkil etish.

Pedagog xodimlar tayyorlov yo'nalishlarida «Muloqot psixologiyasi» tanlov fan sifatida o'qitilishini yo'lga qo'yish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yurituvchi mutaxassislariga mazkur mavzu doirasida o'quvchilarni muloqotga o'rgatish bilan bog'liq tadqiqot ishlarini psixodiagnostik baholashga doir metodikalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

O'smir o'quvchilarining muloqotchanlik darajasining barqaror ravishda kechishi uchun, ularda shaxslilik xususiyatlari, aqliy intellektual jabhalari va kattalar bilan munosabatlarni tushunishga yordam beruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish.

REFERENCES

1. Deyl Karnegi. Muomala sirlari. T.«Navro'z» nashriyoti. 1992
2. V. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999.
3. Choriyeva, S. A. (2024). OILADA MUOMALA MADANIYATINING SHAKLLANISHI VA PSIXOLOGIK JIHATLARI. INTERNATIONALSCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(2), 47–50. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10783513>

4. Xudoynazarova, N. S. (2024). YOSHLAR RUHIYATIGA MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLARNING TA'SIRI VA UNING PSIXOLOGIK FENOMENLARI. Educational Research in Universal Sciences, 3(3), 363-365.